


Aholining inflyatsion kutilmalari

Oktabr oyida aholining kelgusi 12 oylik inflyatsion kutilmalari o'tgan oyga nisbatan 0,3 foiz bandga pasayib, 11,7 foizga teng bo'ldi.



Oktabr, 2025 | Jami 3 431 ta respondent qatnashdi



Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda)	2024		2025									
	noy	dek	yan	fev	mar	apr	may	iyun	iyul	avg	sen	okt
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	51	56	57	63	59	59	57	50	51	48	46	46
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	51	57	50	52	48	47	49	45	45	41	41	42
Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi	26	26	26	28	28	26	25	22	24	26	25	27
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	28	28	22	23	20	18	22	35	34	31	27	26
Transport xarajatlarning oshishi	30	35	30	31	28	29	32	30	27	26	25	25
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	31	33	25	32	26	26	26	24	24	22	22	23
Valyuta kursining o'zgarishi	51	55	46	41	39	38	37	27	30	24	22	22


Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida **yoqilg'i** va **energiya**, **asosiy oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashishi** hamda **monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishini** qayd etgan aholi respondentlari ulushi ortgan bo'lsa, **ish haqi va nafaqalarning oshishini** ta'kidlagan respondentlar ulushi kamaydi.

Tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari

Tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari ham o'tgan oyga nisbatan 0,6 foiz bandga sekinlashib, 11,1 foizni tashkil etdi.



Oktabr, 2025 | Jami 3 431 ta respondent qatnashdi



Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda)	2024		2025									
	noy	dek	yan	fev	mar	apr	may	iyun	iyul	avg	sen	okt
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	49	52	54	58	52	55	54	47	47	45	44	47
Yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi	48	49	49	50	45	46	48	43	42	40	41	45
Transport xarajatlarning oshishi	32	34	32	34	31	31	37	32	31	31	30	33
Xomashyo narxlarining qimmatlashishi	25	25	25	27	25	27	28	25	25	24	26	28
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	29	25	26	22	23	23	24	33	34	33	29	25
Soliq yukining yuqoriligi	25	27	24	27	26	27	27	25	26	24	24	23
Valyuta kursining o'zgarishi	51	52	51	43	43	43	40	31	31	25	22	21

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar sifatida **transport xarajatlarning, kommunal xizmatlarning** va **xomashyo narxlarining qimmatlashishini** belgilagan tadbirkorlar ulushi ko'paygan bo'lsa, **ish haqi va nafaqalar**, shuningdek, **dollar kursining oshishi, soliq yukining yuqoriligini** ta'kidlaganlar ulushi kamaydi.


Inflyatsion kutilmalar – sohalar kesimida

Aholining yuqori inflyatsion kutilmalari **maishiy xizmatlar** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **pensionerlar** tomonidan qayd etildi.




Oktabr, 2025 | Respondentlar: aholi – 3 431 ta, tadbirkorlar – 1 469 ta

Aholi



Tadbirkorlar



Tadbirkorlarning yuqori inflyatsion kutilmalari **madaniyat va san'at** sohasida faoliyat olib boradigan korxonalar tomonidan qayd etilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **qishloq xo'jaligi** sohasida kuzatildi.


Inflyatsion kutilmalar – hududlar kesimida

Aholi inflyatsion kutilmalarining yuqori koʻrsatkichi **Toshkent shahrida** kuzatilgan boʻlsa, nisbatan past inflyatsion kutilmalar **Fargʻona viloyatida** istiqomat qilayotgan aholi tomonidan qayd etildi.




Oktabr, 2025 | Respondentlar: aholi – 3 431 ta, tadbirkorlar – 1 469 ta

Aholi



Tadbirkorlar




Tadbirkorlik subyektlarining yuqori inflyatsion kutilmalari **Xorazm viloyatida** kuzatilgan boʻlsa, nisbatan past kutilmalar **Namangan viloyatida** faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.

Inflyatsion kutilmalar (aholi)

Daromadlari 7 mln soʻmdan yuqori boʻlgan aholining inflyatsion kutilmalari nisbatan yuqori darajada shakllandi.



Oktabr, 2025 | Jami 3 431 ta respondent qatnashdi



Hududlar kesimida aholining inflyatsion kutilmalar boʻyicha javoblar taqsimoti

Navoiy vil.	20	68	13
Xorazm vil.	29	57	15
Toshkent sh.	31	37	32
Toshkent vil.	35	39	26
Qashqadaryo vil.	36	43	21
Qoraqalpogʻiston	36	48	16
Sirdaryo vil.	39	42	18
Jizzax vil.	43	41	17
Samarqand vil.	43	37	20
Buxoro vil.	44	38	19
Surxondaryo vil.	44	34	22
Andijon vil.	46	39	16
Namangan vil.	46	35	20
Fargʻona vil.	47	38	15


8% va undan kamroq 9% - 16% 17% va undan yuqori

Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Oktabr oyi yakunlariga ko'ra, aholi tomonidan sezilgan inflyatsiya darajasi o'tgan oyga nisbatan o'zgarishsiz saqlanib **12,4 foizni** qayd etdi.



Oktabr, 2025 | Jami 3 431 ta respondent qatnashdi



Sezilgan inflyatsiya darajasining yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahrida** qayd etilgan bo'lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **Xorazm viloyatida** kuzatildi.

Sezilgan inflyatsiya omillari (aholi)

Sentabr-oktabr oylarida aholi tomonidan narxlarida yuqori o'sish kuzatilgan asosiy turdagi tovar va xizmatlar



Oktabr, 2025 | Jami 3 431 ta respondent qatnashdi





Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Daromadlari 7 mln soʻmdan yuqori boʻlgan aholining sezilgan inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori shakllandi.



Oktabr, 2025 | Jami 3 431 ta respondent qatnashdi



Aholi tomonidan yuqori sezilgan inflyatsiya darajasi **maishiy xizmatlar** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan boʻlsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **talabalar** tomonidan qayd etildi.